

ISSN 1076-1077

PEDAGOGIKA

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY-NAZARIY
VA METODIK JURNAL

02/2023

- PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOVATIKA
- MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI
- IJTIMOY VA GUMANITAR FANLAR TA'LIMI
- SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI
- XORIJIY TA'LIM TAJRIBALARI
- TA'LIMI TIZIMI YANGILIKLARI
- FAN VA TA'LIM FIDOYILARI
- MAKTABGACHA TA'LIM

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

2/2023

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djuraev Risbay Xaydarovich
Abdullaeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlybaeva Guljahan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtazaeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboeva Xilolaxon
Xakimov Muxabbat
Xodjaev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA EKO-STEAM YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich, ChDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga ekologik ta'lim berish, eko-STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fizika, biologiya, geografiya, informatika, texnologiya, tasviriy san'at hamda muhandislik tafakkuri, tasavvur, hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Eko-STEAM, atrof, muhit, o'quvchilar, ekologiya, ta'lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, eko-ta'lim dasturi, S – fan, T – texnologiya, E – muhandislik, A – san'at, M – matematika, loyiha, integratsiya.

ВОЗМОЖНОСТИ ЭКО-STEAM ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ЭКОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Кучкинов Абдумалик Юлдашович, доцент ЧГПУ, PhD

Аннотация. Данная статья посвящена обеспечению экологического образования учеников, междисциплинарного экологического образования и ориентированию учеников на практику физики, биологии, географии, информатики, технологии, изобразительного искусства и инженерного мышления, воображения, сотрудничества, проявления творческих способностей, формирования междисциплинарной экологической культуры посредством внеклассного независимого образования.

Ключевые слова: экообразование, окружающая среда, environment, учащиеся, экология, образование, технология, дидактика, грамотность, прикладной, подход, программа экообразования, S – наука, T – технология, электронная инженерия, A – искусство, M – математика, проект, интеграция.

THE POSSIBILITIES OF THE ECO-STEAM APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF ECOPEDAGOGICAL COMPETENCE OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich, associate professor of the ChSPU, PhD

Abstract. This article is devoted to providing environmental education for students, interdisciplinary environmental education and orientation of students to the practice of physics, biology, geography, computer science, technology, fine arts and engineering thinking, imagination, cooperation, manifestation of creative abilities, formation of interdisciplinary environmental culture through extracurricular independent education.

Key words: eco-education, environment, environment, students, ecology, education, technology, didactics, literacy, applied, approach, eco-education program, s-science, T – technology, electronic engineering, A – art, M – mathematics, project, integration.

Kirish. XXI asr pedagogikasining ikkita ustuvor yo'nalishi – ekota'lim va Eko-STEAM ta'limning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat oldida turgan bir qator dolzarb vazifalar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar mutlaqo yangi turdagi mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Haqiqiy obyektiv jarayonlar – to'liq

raqamlashtirish va natijada makonning axborot bilan to'lib-toshganligi talabalarda yangi kompetensiyalarni, birinchi navbatda, katta hajmdagi ma'lumotlarni tanqidiy idrok etish qobiliyatini shakllantirishni taqozo etdi. Bundan tashqari, texnik jihozlanishning o'sishi ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari orasida raqamli kompetensiyalarni mukammallashtirishni talab qiladi; bitiruvchilar o'rtasida kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun amaliy ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish zarurligini belgilaydi; murakkab va keng miqyosli tushunchalar zamonaviy ta'lim mutaxassislarga jarayonli fikrlash emas, balki loyiha tafakkuriga bo'lgan talabni belgilaydi va umrbod ta'lim olish motivatsiyasini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Asosiy qisim. Bugungi kunda dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida ekologik ta'lim uchta asosiy – tizimli, g'oyaviy, istiqbolli tushunchalar orqali fanlararo o'quv predmeti sifatida o'quvchilarda tabiatga estetik munosabat va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. So'nggi o'n yillikda dunyoning ko'plab mamlakatlarida yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Turli ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim, tarbiya va ma'rifatning ahamiyatini, bu jarayonning uzluksizligini ta'minlash zarurligini aks ettiruvchi yangi ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda, me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim muassasalaridagi integratsiyalashgan ta'lim, o'quvchining bilim faoliyati va mustaqillik fikrlash hamda o'quv amaliyotiga yo'naltirish ta'lim sifatida yangi natijalarga erishishga yordam beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida «Aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish» belgilangan. Shu munosabat bilan O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi, 2019-2030, 2030-yillarda «yashil» iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiyalar, yangi davlat boshqaruvini shakllantirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Barqaror rivojlanish sohasida ekologik ofatlarning oldini olish kabi ulkan maqsadlarni amalga oshirishda o'quvchilariga ekologik ta'lim berish texnologiyasi joriy etildi. Ekopedagogik ta'limning eng muhim maqsadi talab va ehtiyojlariga muvofiq zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash orqali jamiyatga foyda keltirishi kerak. Ushbu maqsadga erishishda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish Eko-STEAM yondashuvni amalga oshirish va Eko-STEAM ta'lim maqsadiga erishish uchun juda muhimdir. Eko-STEAM ta'limining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning sifatini oshirishdir. Tadqiqotimizda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalaridan olingan so'rovnoma natijasida 60% Eko-STEAM ta'limning fanlararo o'qitish usuli va texnologiyalari past darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu esa, Eko-STEAM ta'limi yetarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'lim (bakalavr) yo'nalishida ta'lim mazmuni va tizimini rivojlantirish, o'qitish metodlari va vositalari hamda ta'limni tashkil etish shakli, turlari orqali talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish borasidagi Eko-STEAM ta'lim kurslari bo'yicha fan o'qituvchilarining fikrlarini aniqlashga qaratildi. Eko-STEAM ta'lim borasida fan o'qituvchilaridan olingan so'rovnoma natijasida fanlararo o'qitish usuli va texnologiyalari 65% tashkil etdi.

Tadqiqotda amaliyotga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar kelajakda Eko-STEAM, ayniqsa, tabiiy fanlar va texnologiyalar, muhandislik va matematika kurslarini faqat matematika bilan bog'lash haqida o'ylashlari aniqlandi. Jumladan, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar muhandislik mahoratiga ega emasligini, yaxshi matematik va tabiiy ko'nikmalarga muhtojligini, biror narsani tuzatishni o'ylashlari aniqlandi. Tadqiqot natijasida pedagogika fakultetlari o'qituvchilari Eko-STEAM ta'limga bo'lgan qiziqishning yuqori darajada bo'lishiga qaramay, o'z sohasida institutsional darajada tajriba va tayyorgarligi yetarli emasligi aniqlandi. Umuman olganda, o'qituvchilar va o'qituvchilarga nomzodlar ko-STEAM ta'limi uchun zarur malakaga ekopedagogik kompetentlikka ega emaslar, Eko-STEAM ta'limi va muhandislik sohasida yuzaki

bilimlarga egalar. Eko-STEAM bo'yicha o'qituvchilarni malakali Eko-STEAM o'qituvchilari sifatida tayyorlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda Eko-STEAM yondashuvning afzalliklari:

1. Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalab olish kerak. STEAM ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash. STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida talabalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda talabalar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi, va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

3. Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarni rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM dasturi, talabalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar tez yuradigan mashina modelini yig'ishadi, so'ngra uni sinovdan o'tkazishadi.

4. O'z kuchiga ishonish hissining ortishi. O'quvchilar ko'prik qurish, mashina va samoaliot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha borishadi. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtirishadi. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadi.

5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash. STEAM dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganishadi. O'quvchilar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo'lishadi. O'quvchilar jarayonda faol qatnashsalar mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

6. Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. Boshlang'ich ta'limida STEAM ta'limining vazifasi, o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat.

7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol va vazifa, muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o'tkazish hamda rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi yoki birgalikda ishlatilishi o'z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o'rganilishi ko'pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

8. Ta'lim va karyera orasidagi ko'prik. Turli zil boholanishlarga ko'ra hozirgi kunda talabgor eng ko'p bo'lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo'ladi. Bunday kasblarga: muhandis-texnik, muhandis energetiklar, kompyuter tizimlari analitiklari, robototexniklar kiradi.

9. O'quvchi-yoshlarni texnologik innovatsion hayotga tayyorgash. STEAM ta'lim o'quvchi-yoshlarni texnologik rivojlanishga tayyorlaydi va bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi, STEAM ko'nikmalar bu rivojlanishning asosi bo'ladi.

10. STEAM dasturlari o'quvchilarning mustaqil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi: amaliyot nazariy bilim kabi juda muhimdir. STEAM yondashuvi bilan an'anaviy yondashuv o'rtasidagi asosiy farq, o'quvchilar turli mavzularni muvaffaqiyatli o'rganishi uchun ularning aqli va qo'llarini baravar ishlatishidir.

Ekologik ta'limning vazifasi talabalarni zamonaviy va samarali o'qituvchi bo'lishga tayyorlash, o'quv jarayonini yangilash va maktab o'quvchilarining dizayn va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Buning uchun talabalar nafaqat tartibli tayyorgarlik ko'rishlari,

balki ijtimoiy mas'uliyatli va doimiy ravishda yangilik qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Eksperimental ishlar natijasida Eko-steam ta'limini qo'llab-quvvatlash va faol amalga oshirish maqsadli rivojlanish dasturlari orqali amalga oshirilishi kerakligi tasdiqlandi, bu talabalar va ularning ustozlarini dizayn va ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb qilishni o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kognitiv va shaxslararo ko'nikmalarni shakllantirish ustida ishlash kerak, ammo buning uchun global ta'lim tendensiyalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Eko-STEAM ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilarning o'quv dasturiga qo'shimcha fanlarni kiritish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy loyiha faoliyati kabi loyihalarni tadqiq qilish qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhim salohiyatga ega badiiy komponentlarni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Bularning barchasi ijodiy va muloqot ko'nikmalarini, muhandislik va dizayn, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan robototexnika darslarida amalga oshirilishi mumkin.

Ekopedagogik ta'limning vazifasi talabalarni zamonaviy va samarali o'qituvchi bo'lishga tayyorlash, o'quv jarayoniga yangiliklarni kiritishga qodir, maktab o'quvchilarining dizayn va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Buning uchun talabalar nafaqat uslubiy jihatdan tayyor bo'lishlari, balki ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishlari va doimiy ravishda innovatsion bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishlari erak. Eksperimental ish natijalari eko-steam ta'limini qo'llab-quvvatlash va faol amalga oshirish maqsadli rivojlanish dasturlari orqali amalga oshirilishi kerakligini tasdiqladi, bu esa, o'z navbatida, talabalar va ularning ustozlarini loyihalash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb qilishni o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kognitiv, shaxslararo ko'nikmalarni shakllantirish ustida ishlash kerak, ammo buning uchun global ta'lim tendensiyalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Eko-steam ta'limi konsepsiyasini amalga oshirish kelajakdagi o'qituvchilarning o'quv dasturlariga qo'shimcha fanlarni kiritish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy, loyiha faoliyati kabi loyiha-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim salohiyatga ega bo'lgan san'at komponentini yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning Eko-STEAM konsepsiyasi elementlarini o'z kasbiy faoliyatiga tatbiq etishga, talabalarda dizayn va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga tayyorligining hozirgi holati tahlili shuni ko'rsatdiki, bu muammo dolzarb va jahon akademik hamjamiyati uchun qiziqish uyg'otadi, uni hal qilishning barcha jihatlarini ko'rib chiqilmagan, shuning uchun u qo'shimcha o'rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son farmoni.
2. Yuldashovich K.A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness // European International Journal of multidisciplinary research and management studies. - 2022. - T. 2. - № 11. - P. 01-05.
3. Kuchkinov A.Y. Boshlang'ich sinf oquvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash: Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
4. Sousa, D.A., Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts. Thousand Oaks: Corwin Press.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Kamilova N.G'

Zo'ravonlikni boshidan kechirgan voyaga yetmagalarinisud-psixologiya ekspertizasi.....3

Галущенко И.Г.

О методах развития мыслительных способностей у студентов-музыковедов в процессе научно-творческой деятельности.....6

Xodjayev S.U.

Sulaymon Boqirg'oni va Najmiddin Kurbolarning pedagogik merosi.....9

Tojiboyeva X.M.

Yunogogika – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.....13

Абдуллаева Ш.А.

Развитие образовательных компетенций у студентов педагогических вузов.....16

Jumasheva G.X., Tenelbayeva A.K., Sparniyazova A.K.

Oilada bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalashning nazariy asoslari.....20

Курбанова Г.А.

Влияние музыкальных звуков на психику человека.....23

Nishanova Z.T., Mansurxonova Z.B.

Kitob o'qishning inson hayotidagi ahamiyati.....28

Махмудов А.Х.

Цифровая школа – перспективы и пути трансформации: часть первая.....32

Murtozaeva M.M.

Talaba-yoshlarda ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish amaliy va ilmiy-nazariy tahlillari.....36

Voxidova N.X.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari va yechimlari.....41

Ashurova S.Yu.

Maxsus fanlardan o'quvchilarni faollashtirish darajasini oshirishda individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati.....45

Akramova G.R.

O'quvchida tanqidiy tafakkurning rivojlanishi – ijtimoiy munosabatlarga tayyorlik kafolati.....50

Norkulov H.D.

Oilada o'smirlar tabiiasini tashkil etishning huquqi va nazariy asoslari.....54

Nosirov B.G'

Masofaviy ta'lim sharoitida pedagog kadrilar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o'rni va ahamiyati.....59

Абдуллаева Н.А.

Совершенствование познавательно-профессиональных компетенций студентов посредством эргономического и гендерного подходов в современном образовании.....63

Ким И.Н.

Зарубежный подход и тенденции в организации экологического образования в республике Узбекистан.....67

Kuchkinov A.Yu.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda eko-steam yondashuvning imkoniyatlari.....71

Jo'rayev M.M.

Kasbga yo'naltirilgan ta'lim kontekstida fanni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....75

Nazarov A.A.

Turkistonda maktab ta'limi tizimining rivojlantirish tarixi va pedagogik o'ziga xosligi (XIX asr ikkinchi yarin – XX asr boshlari).....78

Usmanova F.S.

Innovatsion yondashuv asosida yoshlarda madaniyat kompetentligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari.....84

Urazbayeva D.R.

O'quvchilarda chet tillarni o'rgatishda ijtimoiylashtiruv vositalari.....88

Hoshimov I.

Umumta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonida tarixiy-madaniy milliy merosdan foydalanish modeli.....93

Boymurodova Z.X.

Tarbiya jarayonida ta'lim muassasalari hamda pedagogiglarining o'rni.....98

Karabayeva D.I.

Texnologiya darslarida boshlang'ich sibf eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish.....101

Raxmatullayev D.R.

Professional ta'lim muassasalarining o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish.....105

Atakulova N.A.

Talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishda dunyoviy hamda diniy bilimlar integratsiyasining ahamiyati.....109

Maxmudova F.X.

Raqamli iqtisodiyotning fan va ta'lim integratsiyasi rivojlanishida talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish.....113

Suvonova L.I.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativlik layoqatini Steam texnologiyalari asosida takomillashtirish.....116

Xusanov B.

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-metodologik asoslari.....121

Пирматова М.

Ценностная ориентация малой прозы Ю.Буйды.....125

Omarova G.S.

Mehnat huquqi fanida ta'limni tabaqalashtirish.....130

Xazratkulova G.T.

«Steam-ta'lim» yondashuvi asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatini takomillashtirish.....133

Raximova Sh.A.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....138

Asatova Sh.Z.

Oliy ta'lim tizimida boshkaruv faoliyati nazoratini modernizatsionalash.....142

Tilanova S.B.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda steam yondashuv.....146

Dadajanova D.A.

Chet tilini o'qitishda talabalar o'z-o'zini rivojlantirishning kompetensiyasining pedagogik imkoniyatlari.....150

Eshmamatova N.N.

Boshlang'icg sinflarda ta'lim tizimini rivojlantirishda ekskursiyadan foydalanishning ahamiyati.....154

Mirzayev J.T.

Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlarlari.....158

Ergashev A.R.

Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik usullari.....161

Nishanov A.O.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qituvchilar malakasini oshirish asosida ularning kasbiy sifatlarini rivojlantirish.....164

Gulamov J.B.

Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari (gumanitar ta'lim yunalishi talabalari misolida).....167

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGIKA

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 2

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 2

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova

Muharrirlar – D.A.Madjidova, X.M.Tojiboyeva

Sahifalovchi – S.Pirmatov

Nashr ko’rsatkichlari:

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqarib boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2023-yil 29-aprel bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 75 nusxa. 11 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100^{1/16} “Roboto” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.